

DOI: 10.5281/zenodo.15619764

Link: <https://zenodo.org/records/15619764>

MAHALLA INSTITUTINING TRANSFORMATSIYASI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Toshtemirova Zilola Madaminjonovna

"Iqtisodiyot" kafedrasи katta o'qituvchisi

University of economics and pedagogy NOTM

Andijon viloyati, Andijon shahri

toshtemirova.zilolaxon@gmail.com

Tel: +998991000624

Annotatsiya. Mahalla instituti – bu mahalliy darajada aholining ehtiyojlariga javob berish, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun javobgar bo'lgan tashkilotlardir. Ushbu institutlar davlat va jamiyat o'rtaсидаги aloqalarni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun mahalla boshqaruvining samaradorligini oshirish, o'zgarishlar jarayonida tizimlarni takomillashtirish, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mahallaning an'anaviy faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish zarur. Mahalla institutlari o'z faoliyatini davlat siyosatida iqtisodiy va ijtimoiy talablar asosida tashkil etadi. Ushbu boshqaruv tizimi davomiy o'zgarishlarga duch keladi, chunki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun mahalla boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun uning transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish zarur. Ushbu maqolada mahalla instituti faoliyatida uchrayotgan tizimli muammolar, ularning tahlili hamda transformatsiya va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ma'lumotlar o'rganilib, amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mahalla instituti, transformatsiya, boshqaruv, raqamlashtirish, ijtimoiy boshqaruv, hukumatlar, fuqarolar ishtirokchilligi, inson resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.

Kirish. Mahalla – bu yurtimizdagi qadimiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, u aholi bilan davlat organlari o'rtaсидаги vositachi hisoblanadi. O'zbekistonda mahalla instituti nafaqat ma'muriy-huquqiy tuzilma, balki aholining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy qadriyatlari saqlanishi va rivojlanishida muhim o'rinn tutadi.

So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mahalla institutining roli ortib bormoqda. Transformatsiya bugungi kunda ijtimoiy o'zgarishlarning aksariyat qismiga nisbatan qo'llanayotgan tushunchalardan biri bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonda iqtisodiyot sohalari va ijtimoiy hayotning ko'pgina tarmoqlari transformatsiyaga uchradi. Bu siyosiy texnologiyami yoki ob'yektiv zaruratmi, degan savol tug'ilishi ham tabiiy hol. Transformatsiya – tizimning qisqa muddatda keskinlik bilan o'zgarishini anglatadi. Mahalla institutlarining transformatsiyasi va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari so'nggi yillarda davlat boshqaruvi va jamoat xizmatlarini yaxshilash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla institutlari – bu mahalliy darajada aholining ehtiyojlariga javob berish, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun javobgar bo'lgan tashkilotlardir. Ushbu institutlar davlat va jamiyat o'rtaсидаги aloqalarni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun mahalla boshqaruvining samaradorligini oshirish, o'zgarishlar jarayonida tizimlarni takomillashtirish hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Transformatsiya jarayonida boshqaruv samaradorligini oshirishning ahamiyati shundaki, zamonaviy jamiyatda hukumatlar va mahalliy idoralar bir-biridan alohida emas, balki bir butun sifatida ishlashini ta'minlash uchun yangi boshqaruv metodlari,

texnologiyalar va resurslarni qo'llash zarur bo'ladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'zgaruvchan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashish kerak.

Asosiy qism. O'zbekistonning fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan mahalla instituti ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy sohalarda faoliyat olib boradi. Mahallalar davlat organlari va aholi o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning islohotlar siyosatining markazida ham mahalliy boshqaruv tizimini yangilash turibdi.

Shu bilan birga, amaliyotda mahallalarda kadrlar yetishmasligi, moliyaviy o'zini o'zi ta'minlay olmaslik, raqamli yechimlardagi muammolar samaradorlikka to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, transformatsiya jarayonlari jadallashtirilishi va samarali boshqaruv tizimini shakllantirilishi muxim hisoblanadi.

Mahalla instituti boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir tadqiqotlar, asosan, nazariy asoslar va amaliyotda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan. Shuningdek, bu mavzu mahalla institutlarining raqamli transformatsiyasi, xizmatlar sifatini oshirish va hamkorlikni rivojlantirish kabi yangi yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mahalla institutlarining transformatsiyasi jarayonini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni taqdim etish, shuningdek, boshqaruv tizimida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Mahalla boshqaruviga, asosan, mahalliy darajada jamoat xizmatlarini taqdim etish va aholi ehtiyojlariga javob berishga qaratilgan tizim sifatida qaraladi. Mahalla institutlari o'z faoliyatini davlat siyosatida iqtisodiy va ijtimoiy talablar asosida tashkil etadi. Ushbu boshqaruv tizimi davomiy o'zgarishlarga duch keladi, chunki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shunday qilib, mahalla boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun uning transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mahalla instituti transformatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlandi va bu boradagi aksariyat konsepsiyalarning muallifi ham davlatimiz rahbaridir. Shavkat Mirziyoyev mahallaning betakror imkoniyatlaridan xalqni rozi qilish va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida foydalanish, buning uchun esa mahalla instituti salohiyatini yanada ko'tarish kerakligiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bu xususda mamlakat Prezidentining "... bugun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi zarur. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniyalarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodirdir" [1], deb ta'kidlagan so'zlari mahallaga yuklatilayotgan ijtimoiy vazifalar ko'lamini tushunib olishga xizmat qiladi.

Transformatsiya masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan D.Grigorenko fikricha, jamiyatning transformatsiyasi boshqaruvda ortda qolish natijasidir [2]. Bu o'rinda muallif transformatsiyagacha bo'lgan turg'unlikka ishora qiladi. Ya'ni, uzoq yillar davomida ortga surilgano'zgarishlar keyinchalik ijtimoiy tizimdag'i juda katta muammolarni – ijtimoiy munosabatlardagi nomuvofiqlik, tizimning ishdan chiqishi va destruktiv elementlarning ko'payishiga olib kelishi

mumkin. Buning natijasida esa uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan, shu vaqtga qadar samarali ishlab kelgan tizimlar, o‘zgarishlarning taraqqiyatiga ega bo‘lmaganligi sababli yo‘qolib ketishi ham mumkin. Shu ma’noda transformatsiyani ijtimoiy tizimlarni reanimatsiya qilish amaliyoti deb atash mumkin bo‘ladi.

Mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarga turtki bera oladigan, jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligini oshirib, boshqaruvdagi ishtirokini ta’minalash hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan, xalqni farovon qilib, natijada kambag‘allikni qisqartiradigan tuzilmadir. Shu nuqtai nazardan ham keyingi yillarda mahalla faoliyatida tinimsiz o‘zgarishlar va islohotlar jarayoni kuzatilmoqda. Bu jarayonning mantiqiy davomi ham mahallani katta ijtimoiy kuch va fuqarolik jamiyatining haqiqiy institutiga aylantirish bilan bog‘liq ravishda kechishi aniq bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-350-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 2-apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5700-son, 2020-yil 18-fevraldagagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab- quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5938-son farmonlari, shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni hamda mazkur hujjat bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi kabi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mahalla institutiga oid bir qator muhim o‘zgarishlar kiritilgan. Bu o‘zgarishlar mahallaning fuqarolik jamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash va uning davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan. Yangi Konstitutsianing 69-moddasida “Fuqarolik jamiyatni institutlari, shu jumladan mahallalar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqorolik jamiyatni institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi [3] - deb belgilangan. Bu orqali mahalla fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi.

Konstitutsiyada mahallalarga o‘z hududini mustaqil boshqarish, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi vakolatlar berilgan. Shu bilan birga, mahallaning davlat organlari tizimiga kirmasligi belgilangan, ya’ni mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida faoliyat yuritadi. Yangi Konstitutsiyada mahalla institutiga oid kiritilgan o‘zgarishlar mahallaning fuqarolik jamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash va uning davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan. Bu o‘zgarishlar mahalla

mustaqilligini ta'minlash, aholi manfaatlarini himoya qilish va davlat organlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy muammolariga bir qator olimlar o'zlarining dissertatsiya, monografiya va ilmiy maqolalarida e'tibor qaratganlar. O'zbekiston olimlari mahallaning dolzarb muammolari bo'yicha fundamental tadqiqotlar yaratdilar.

Xususan, A.Begmatov (ma'naviyat va ma'naviy tarbiya bilan bog'liq holda), S.Agzamxodjayeva (oila va oilaviy munosabatlar muammolari nuqtai nazaridan), Q.Nazarov (mahalla aksilogik mohiyati), M.Qahharova (jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash omili), Z.Qodirova (milliy va bag'rikenglikni tarbiyalash asosi), Sh.Madaeva (milliy mentalitet bilan bog'lagan holda), I.Saifnazarov (yoshlarda g'urur va vatanparvarlikni tarbiyalash nuqtai nazaridan), Sh.Sodiqova (mahallani gerontologiyaning etukligi nuqtai nazaridan), S.Otamuratov (milliy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash nuqtai nazaridan), N.Hakimov (yoshlarda ekologik ongni rivojlantirish nuqtai nazaridan), K.Yunusov (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini o'rganish nuqtai nazaridan) ko'rib chiqadi.

O'zbekistondagi mahallaning transformatsiyasiga doir tadqiqotlar amalga oshirish hozirgi sharoitda mahalla tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar, dinamika va transformatsiyani ijtimoiy-tarixiy, milliy va aksilogik hodisa sifatida ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish va bu jarayonni jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi tomonqa yo'naltirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodikasi. Mahalla institutining boshqaruvi tizimi, uning amaliy faoliyati va davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni tadqiqot obyekti sifatida belgilanadi. Mahalla institutlarining transformatsiya jarayonlari, boshqaruvi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar tadqiqot predmeti bo'ladi.

Tadqiqotda nazariy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qiyoslash-taqqoslash, kompleks, ilmiy usullardan foydalanildi:

- *Tarixiy tahlil* – mahalla institutining milliy va huquqiy rivojlanish bosqichlari o'rganildi.

- *Qiyosiy tahlil* – Turkiya, Indoneziya va Janubiy Koreya tajribalari orqali transformatsiya modellari taqqoslandi.

- *SWOT tahlil* – mahalla tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlandi.

- *Hujjat tahlili* – Prezident farmonlari, qonunlar va tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil natijalari:

Turkiyada mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari mustaqil budgetga ega va soliq yig'ish vakolatiga ega.

Indoneziyada "Qishloqni raqamlashtirish dasturi" orqali mahalliy fuqarolarning murojaatlari markazlashgan elektron platforma orqali qabul qilinadi.

Janubiy Koreyada "Aqli mahalla" konsepsiysi joriy etilgan bo'lib, u ijtimoiy xizmatlar, xavfsizlik va ta'lim sohalarini raqamlashtirgan.

SWOT tahlil natijalari (*O'zbekistonidagi mahalla tizimi*)

S (kuchli tomoni) aholi o'rtaida ishonch, tarixiy va milliy qadriyatlarga mos tuzilma.	W (imkoniyati) davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyati.
O (kuchsiz tomoni) raqamlashtirish darajasining pastligi, kadrlar salohiyati yetarli emasligi.	T (xavf xatari) formalizm, aholi va davlat organlari o'rtaida ishonchszilik xavfi.

Muhokama. *Mahalla institutidagi transformatsiyaga ehtiyoji* bu mahallaning roli an'anaviy tarzda faqat ijtimoiy nazorat va ma'naviy tarbiya bilan cheklanib qolmasligi kerakligini bildiradi. Zamonaviy davlat boshqaruvida mahalla — aholining siyosiy va iqtisodiy faolligini oshiruvchi, real muammolarni davlatga yetkazuvchi mustaqil platforma bo'lishi lozim.

Mahalla institutlarining transformatsiya jarayonlarida samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqaruv maqsadlariga bog'liq. Mahalla tizimi transformatsiya jarayonida jamiyatning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va davlat siyosatini amaldagi realliklarga moslashtirish kabi muhim vazifalarni bajarishi kerak. Bundan kelib chiqib, Mahalla institutlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rib chiqamiz.

1. Qonun va huquqiy asoslar.

Mahalla institutlarining samaradorligi uchun huquqiy asoslar muhim rol o'ynaydi. Qonunlarning aniq va to'g'ri ishlashi, davlatning Mahalla faoliyatiga qo'ygan talablari, ijtimoiy yordam, soliq tizimi, jamoatchilik ishlari va byurokratiyaning soddalashtirilishi — bari Mahalla tizimining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qonunchilikning samaradorligi: Agar qonunlar aniq va tadbiq etilsa, Mahalla faoliyatining samaradorligi oshadi. Masalan, Mahalla va oila tizimini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar transformatsiya jarayonlariga ko'mak beradi.

Soliq va ijtimoiy yordamga oid huquqiy mexanizmlar: Mahalla tashkilotlari aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda faol ishslash uchun zarur huquqiy asoslarga ega bo'lishi kerak.

2. Raqamlashtirish va texnologik islohotlar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va elektron davlat xizmatlari Mahalla institutlarining ish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib bormoqda.

-Mahalla faoliyatida yangi raqamli vositalar va platforma (masalan, onlayn portallar, mobil dasturlar) joriy etilishi davlat organlari bilan axborot almashish, ijtimoiy yordamlarni aniqlash va real holatlarni tezkor, samarali tarzda hal qilish imkonini beradi.

-Hujjalarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali byurokratiyani kamaytirish, jamoatchilik bilan ishslashni yaxshilash mumkin.

3. Mahalla rahbarlarining malakasi va menejment qobiliyatları.

Mahalla rahbarlarining malakasi va ularning boshqaruv qibiliyatları juda muhim. Mahalla rahbarlarining professional yo'nalishlar va malakasi, boshqaruv qibiliyati Mahallaning faoliyatida o'zini ko'rsatadi.

Mahalla rahbarlarining maxsus treninglar olishi, ish boshlaganlarga doimiy ravishda yordam berish – samaradorlikning asosiy sharti. Bu rahbarlarning ish jarayonini yordamchi vositalar va ko'nikmalar bilan ta'minlashga yordam beradi.

Boshqaruvda qarorlarni tez va samarali qabul qilishga qaratilgan jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mahalla rahbarlari qabul qilgan qarorlar aholiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq bilishi lozim.

4. Jamoatchilik va fuqarolarning ishtirok etishi.

Mahalla institutlarining samaradorligiga jamoatchilikning faol ishtirok etishi katta ahamiyatga ega. Agar aholi o'z huquqlari va majburiyatlarini tushunishsa, va mahalliy jamoatchilik o'z ishida faol ishtirok etsa, muammolarni hal qilish tezlashadi.

Mahalla a'zolari ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirishda muhim rol o'yнaydi. Aholining va fuqarolarning yig'ilishlarda ishtirok etishlari, shaxsiy fikrlari va takliflarini bildirishlari Mahalla institutining ijtimoiy samaradorligini oshiradi.

Davlat va mahalliy hokimiyat o'rtaida hamkorlik samarali natijaga olib keladi, chunki har bir jamoa o'zining ehtiyojlarini bilish va ularga muvofiq yordam ko'rsatishga qaratilgan.

5. Moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlar.

Mahalla institutlarining samaradorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri moliyaviy va iqtisodiy resurslardir. Agar Mahallaning faoliyatini ta'minlash uchun zarur mablag'lar va resurslar bo'lsa, uning samaradorligi oshadi. Mahalla tizimining samaradorligi, masalan, ijtimoiy yordam ko'rsatish, infratuzilmani takomillashtirish, yoshlar va ayollar uchun tadbirlar tashkil qilish kabi jarayonlar faoliyatga moliyaviy manbaalar yo'naltirilsa, muvaffaqiyatli bo'ladi. Transformatsiya jarayonining keyingi bosqichlarida mahalla tizimidagi shaffoflik, samaradorlik va rag'batlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilishi kerak. Davlatning ushbu qonunlar va qarorlar orqali Mahalla tizimini mustahkamlashga bo'lgan intilishi aholining ijtimoiy muhiti va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamdir.

Tahlil va natijalar. Transformatsiya jarayonida muvaffaqiyatli tajriba va yondoshuvlarni o'rganish boshqa mamlakatlar va hududlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida amalga oshirilgan. Xalqaro tajriba, yangi metodlarni va yondoshuvlarni tatbiq etishning muhimligini ko'rsatadi.

Shvetsiya va Norvegianing boshqaruv tizimi. Bu mamlakatlarda mahalliy boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish uchun markazlashgan va decentralizatsiya yondoshuvlari muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalar joriy etilgan.

Germaniya va Fransiya tajribasi. Ushbu mamlakatlarda ijtimoiy hamkorlik va jamoat tashkilotlari bilan sherikchilikni kuchaytirish, mahalliy darajada boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Mahalla institutlarining boshqaruv tizimiga bo'lgan e'tibor nafaqat ichki boshqaruvni takomillashtirishga, balki jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirishga ham yo'naltirilgan.

Bugungi kunda boshqaruv samaradorligini oshirishda yangi yondoshuvlar va innovatsiyalar muhim rol o'ynamoqda.

Transformatsiya jarayonida muvaffaqiyatli xalqaro tajribalar ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilgan. Peter H. Smith (2019) "Global Trends in Public Sector Reform" kitobida, Shvetsiya va Norvegiya boshqaruv tizimlaridagi muvaffaqiyatli transformatsiyalarini ta'riflagan va mahalla boshqaruvining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondoshuvlarni o'rganib chiqgan (Smith, 2019). Ushbu mamlakatlarda markazlashgan boshqaruv tizimlaridan desentralizatsiyaga o'tish jarayonidagi muvaffaqiyatlar tahlil qilingan.

Marie Dubois (2020) esa o'zining "Decentralization of Local Governance in Europe" nomli tadqiqotida, Germaniya va Fransiya tajribalarini ko'rib chiqib, bu mamlakatlardagi mahalliy boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilgan transformatsiya jarayonlarini o'rganish orqali xalqaro tajribalarni o'zida mujassam etgan (Dubois, 2020).

Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi mamlakatlarda o'zini o'zi boshqarish organlari juda samarali faoliyat yuritmoqda. Ulardan olinishi mumkin bo'lgan saboqlar:

- Aniq normativ baza;
- Aniq moliyalashtirish mexanizmlari;
- Texnologik integratsiya va ochiqlik.

Xulosa va takliflar. Mahalla an'anaviy ravishda fuqarolarning o'zaro hamjihatligi, yordamlashuvi va ijtimoiy nazorat tizimi sifatida shakllangan. Hozirgi kunda esa u ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtiradi, mahalliy aholining ehtiyojlarini o'rganadi va hal etishda ishtirok etadi. Davlat va jamiyat o'rtasida vositachilik qiladi.

Mahalla institutining transformatsiya qilinishi nafaqat uning ichki tuzilmasi, balki butun mahalliy boshqaruv tizimining isloh etilishiga olib keladi. Ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy sheriklik va kadrlar siyosati orqali mahallaning jamiyatdagi nufuzini oshirish va davlat bilan xalq o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash mumkin. Mahallalarni "mahalliy rivojlanish markazlari"ga aylantirish barqaror ijtimoiy boshqaruvning asosiy kafolatidir.

Mahalla boshqaruvining samaradorligini oshirishda jamoatchilik bilan ishslash, ma'lumot almashish va axborotning shaffofligini ta'minlash muhim. Mahalliy boshqaruv tizimlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektorlardan ko'proq resurslar jalb qilish kerak. Boshqaruv samaradorligi tushunchasi, boshqaruv tizimining maqsadga erishish darajasi, resurslardan qanday samarali foydalanish va tizimdagagi o'zgarishlarga javob berish tezligi bilan bog'liq.

Mahalla boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator yondoshuvlar va takliflarni keltirish mumkin :

- *Markazlashtirilgan boshqaruv tizimi:* Bu tizimda qarorlar yuqori darajadagi hukumat tomonidan qabul qilinadi, ammo bu boshqaruvni samarali amalga oshirish uchun Mahalla darajasida samarali resurslarni taqsimlash muhimdir. Mahalliy o'zgarishlar va ehtiyojlarni yaxshiroq anglash uchun boshqaruvni markazdan mahalliy darajaga o'tkazish. Bu tizimda mahalla boshqaruvining qamrovi kengayadi va shuningdek, resurslar samarali taqsimlanadi.

- *Inson resurslari va malakali kadrlar:* Mahalla boshqaruvini takomillashtirish uchun malakali va tajribali kadrlarni jalb etish zarur. Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, boshqaruv metodologiyalarini doimiy ravishda yangilab borish kerak.

- *Raqamli boshqaruv tizimlari:* Zamonaviy texnologiyalar, masalan, raqamlı tizimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tizimlar yordamida ma'lumotlar tahlili, qarorlar qabul qilish va resurslarni boshqarish tizimi soddalashtiriladi.

- *Strategik rejalahtirish va monitoring:* Transformatsiya jarayonida samaradorlikni o'lchash uchun strategik rejalahtirish va monitoring mexanizmlarini qo'llash. Mahalla boshqaruvida monitoring tizimi yordamida barcha jarayonlarni doimiy nazorat qilish va zarur o'zgartirishlarni amalga oshirish mumkin.

- *Jamoatchilik ishtirokini kengaytirish:* Aholining mahalla faoliyatida ishtirokini rag'batlantirish;

- *Moliyaviy mustaqillik:* Mahalla organlari uchun manzilli moliyalashtirish tizimini joriy etish.

Mahalla tizimida transformatsiyalashuv va boshqaruv samaradorligini oshirish bu jamiyatning va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim jarayondir. Ushbu jarayonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, texnologiyalarni joriy etish, madaniy an'analarni saqlash va ekologik masalalarga e'tibor berish kerak. Transformatsiya samarali bo'lishi uchun mahalliy jamoalarning aktivligi, davlatning qo'llab-quvvatlovi va zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Mahalla – tinchlik va osoyishtalik, obodlik va farovonlik markaziga aylanadi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 12-fevral kuni o'tkazilgan videoelektor yig'ilishi // Xalq so'zi. – 2020. – 13-fevral. – № 32.
2. Grigorenko D.E. Transformatsiya obshchestva i ego neupravlyayemost' // Srednerusskiy vestnik obshchestvennykh nauk. – 2011. – № 3. – S. 30–35.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023-yil tahriri.
4. Abdullayev A. Mahalla tizimi: tarixi, hozirgi holati va istiqbollari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2020.
5. Saidov S. Mahalla: jamiat va davlat o'rtaqidagi aloqalar. – Toshkent: O'zbekiston Davlat Noshirligi, 2019.
6. Yuldashev R. Mahallaning ijtimoiy rolini oshirish: muammolar va yechimlar // Journal of Social Sciences. – 2021. – Vol. 5, No. 2. – B. 45–58.
7. Isroilov I. Boshqaruv samaradorligini oshirishda mahalla institutining o'rni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Sanoat Vazirligi, 2022.
8. Khamidov D. Transformatsiya jarayonlari: mahalla va mahalliy boshqaruv. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2018.

9. Tursunov B. Mahalliy boshqaruv va mahalla tizimining rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2021.
10. Muminov A. Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati // Journal of Economic Studies. – 2020. – Vol. 12, No. 4. – B. 67–74.
11. Nazarov F. Mahallalararo hamkorlik va boshqaruv tizimlari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2019.
12. Abdullayeva N. Innovatsiyalar va boshqaruv samaradorligi: mahalla misolida. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi, 2023.
13. Qodirov E. Mahalla institutining zamonaviy talablarga moslashuvi // Journal of Public Administration. – 2022. – Vol. 8, No. 1. – B. 15–29.